

POSTMODERNIZMDA BADIY IFODA VA IJODIY USLUB

*Ergashev Maqsud Usan o'g'li, Nukus davlat pedagogika instituti
“O'zbek adabiyoti” kafedrasi doktoranti*

ARTISTIC EXPRESSION AND CREATIVE STYLE IN POSTMODERNISM

*Ergashev Maksud Usan o'g'li, Doctoral student of the Department
of Uzbek Literature, Nukus State Pedagogical Institute*

ХУДОЖЕСТВЕННОЕ ВЫРАЖЕНИЕ И ТВОРЧЕСКИЙ СТИЛЬ В ПОСТМОДЕРНИЗМЕ

*Эргашев Максуд Усан оглы, докторант кафедры “Узбекская
литература” Нукусского государственного педагогического
института*



Annotatsiya: Maqolada postmodernistik ifoda, uning vujudga kelish omillari va hosil qilish usullari Isajon Sultanning romanlari misolida ilmiy-nazariy umumlashtiriladi. Shuningdek, G'arbda vujudga kelgan ijodiy uslub va Sharqona modelning o'xshash va farqli jihatlari aniq misollar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: postmodern, uslub, xaos, kodlar, intertekstualilitik, badiiy mahorat.

Abstract: The article provides a scientific and theoretical generalization of postmodernist expression, the factors of its emergence, and the methods of its formation using the example of Isajon Sultan's novels. Also, based on specific examples, the similarities and differences between the creative style that emerged in the West and the Eastern model are analyzed.

Key words: postmodern, style, chaos, codes, intertextuality, artistic skill.

Аннотация: В статье научно-теоретически обобщены постмодернистское выражение, факторы его возникновения и методы создания на примере романов Исаджона Султана. Также на основе конкретных примеров анализируются сходства и различия творческого стиля, возникшего на Западе и восточной модели.

Ключевые слова: постмодерн, стиль, хаос, коды, интертекстуальность, художественное мастерство.

KIRISH. Asosan falsafa, san'at, arxitektura va adabiy tanqidchilikda modernizm an'analaridan chekinishni o'zida ifodalaydigan postmodernizm yo'nalishi XX asr o'rtalari va oxirlarida rivojlangan. Uning vujudga kelishi xususida adabiyotshunos S.Quronov ta'kidlaydiki: "Postmodernizm o'tgan asrning ikkinchi yarmidan, bir tarafdan jahon urushlarining yakun topishi va sovuq urushning boshlanishi, ikkinchi tarafdan axborot texnologiyalarining rivojlanishi va globallashuvning tezlashishi, uchinchi tarafdan esa aniq va tabiiy

fanlardagi olamshumul kashfiyotlar ta'sirida vujudga kela boshladi" [4-196].

Darhaqiqat, aynan ikkinchi jahon urushi yakunlanganidan so'ng yer yuzining ikki mintaqaga bo'linishi va o'zaro qurollanish poygasiga kirishi natijasida fan tilida "sovuq urush" nomi bilan kirgan atama yuzaga keladi. Sovuq urush davrida faqatgina texnikalardan qurol sifatida foydalanmasdan biologik qurol yasash ustida ham ko'plab tajribalar amalga oshirishgan. Bu esa fan-texnika rivojida katta yutuqlarning paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi. Shu davrda insoniyat yangi zamonga qadam qo'yganini

anglaydi, o‘zining borliqdagi maqom va vazifasini qayta belgilab olishi kerakligini sezadi. Inson o‘zining shu ehtiyoj mahsuli, mavjudlikni tushunish va tushuntirishning yangi quroli sifatida postmodernistik paradigma yuzaga keldi. Mazkur mulohazalarimizni ukrain olimi Dmitriy Zatonskiy qarashlari ham tasdiqlaydi: “Postmodern davr termoyadroviy oxirzamon (olim buni termoyadro urushi tufayli sodir bo‘ladigan oxirzamon deb ataydi) sodir bo‘lmagandan keyin boshlandi. Biz dunyoning tubiga nazar soldik, ammo hayotda yashab qoldik. Albatta, buning uchun E’tiqod, Umid, Muhabbat bilan to‘lov to‘ladik” [5-205].

Mavzuning dolzarbligi va hozirgi holati.

Badiiy adabiyotda postmodernizm maummosi yuzasidan adabiyotshunoslikda turli xil qarashlar mavjud. Xususan, ijodkor va adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam ta’biri bilan aytganda: “Postmodernizm odamlarning begonalashuvini keltirib chiqargan postindustrial jamiyatda paydo bo‘ladi” [2.66]. Darhaqiqat, insonlar orasida mehr-oqibat yo‘qolgan sayin u faqat o‘z manfaatlardan kelib chiqqan holda hayot kechira boshlaydi. Bu esa umumiyl manfaatlarga xizmat qiladigan qonun-qoidalarning yo‘qqa chiqishiga, hamda olam bema’ni qonun-qoidalardan tashkil topgan, degan xulosalarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Postmodernizm murakkab tushuncha bo‘lib, u haqida yagona bir xulosa berish juda qiyin. Bu borada adabiyotshunos Ulug‘bek Hamdam “Postmodernizm modernizmdan keyin kelgan bo‘lib (“post” – keyin), o‘ta murakkab va serqirra adabiy oqimdir. Adabiy oqim deyilsa-da, postmodernizm xuddi modernizm kabi inson dunyoqarashiga ta’sir qilgan, keng tarmoqli va g‘oyat ziddiyatli ulkan hodisadir. U haqdagi qarashlar ham tugallanmagan. Chunki hodisaning o‘zi davom etmoqda. Qayerdaki xaos bor ekan, u yerda postmodernizm ham bor...” [2.53] ekanligini e’tirof etsa, yosh olim S.Quronov o‘z ilmiy tadqiqotlarida “Postmodernizm juda ommabop, shu bilan birga ko‘p tadqiq etilgan hodisa bo‘lishiga qaramay, hamon o‘ta mavhum tushunchadir. Bu yo‘nalishning nazariy asoslari yuzasidan mutaxassislarning yakfikri – konsensusi mavjud emas” [4-199], – deya ta’kidlaydi. Darhaqiqat, o‘zidan oldingi ijodiy metodlardan keskin farq qiluvchi postmodernizm olam va odam munosabatlarni anglashga urinmaydi. Chunki postmodernistlar olamni bema’ni – xaos deb

biladiki, natijada ular har narsaga shubha bilan qaray boshlaydi.

Tadqiqotni amalga oshirish. Milliy adabiyotimizga postmodernizm yo‘nalishining ta’siri haqida so‘z yuritilganda har bir narsadan hikmat izlaydigan Sharq xalqlari postmodernizmdan o‘ziga xos ma’no kashf etganlar. Taniqli yozuvchi Isajon Sulton “Boqiy darbadar” romanining “Timsollar charxpalagi” qismida postmodernizm alomatlari anglashiladi. “Biroq, ne ajabki, muqaddas tushunchalar ham turli-tuman bo‘laklarga bo‘lib tashlangan edi! Butun olam muvozanat ichida bo‘lgandagina hamma narsa qadr-qimmat kasb etar, muvozanat buzilganida qadr-qimmatlar ham o‘zgarib ketmoqda edi” [6.200]. Asar qahramoni, professor Ziyo tilidan keltirilgan ushbu jumla Ulug‘bek Hamdamning biz yuqorida to‘xtalgan fikrlariga hamohanglik kasb etadi.

Ta’kidlash lozimki, Isajon Sultonning deyarli barcha, xususan, “Bilga xoqon”, “Alisher Navoiy”, “Beruniy” asarlarida postmodernizm qisman anglashilsa, “Ozod”, “Boqiy darbadar” va “Genetik” romanlarida bu alomatlar yaqqol namoyon bo‘ladi. Adib romanlari kichik-kichik hikoyalari asosida yuzaga kelgan bo‘lib, ularning aksariyatida mavjud biror badiiy asar yoki adabiy-tarixiy manbalardan olingan ma’lumotlar asos bo‘ladi. Adib asarlarida “Bilga xoqon”, “To‘nyuquq”, “Eltarish xoqon” bitiktoshlari hamda “Irq bitigi”, hamda Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy asarlarini hamda Qur’oni Karimdan mohirona foydalanganligini sezish mumkin. Ko‘rinadiki, “Postmodernchilar hatto badiiy asar tushunchasini matn tushunchasi bilan almashtirishdi. “Matnlar dialogi” ma’nosini beruvchi intertekstuallik tushunchasi keng istifoda etiladi. Bunda reallik va san’at o‘rtasidagi chegara buziladi. Hech qanday individual asar yo‘q. Har qanday asar jamoaviydir. Chunki asar umummadaniyat negizida paydo bo‘ladi” [2.66].

Postmodernistik ruhda yozilgan asarlarning yana bir xususiyati, ularning kodlangan holda keltirilishidir. Bu esa ikki qatlamdan iborat bo‘ladi. Birinchi qatlam oddiy o‘quvchiga, ikkinchi qatlam esa xos o‘quvchiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan adibning “Ozod” romani alohida ahamiyat kasb etadi. Asarda Ozod taqdir lolasini izlab borib, uni o‘z yoriga olib kelishdagi mashaqqatlari va safar sarguzashtlarini oddiy o‘quvchi anglagan holda zavq olsa, xos o‘quvchi

roman qatlariga yashirilgan ramzlarni kashf qilib badiiy zavq tuyadi.

“Genetik” – psixologiyok, falsafiy qarashlar mujassamlashgan roman. Unda yozuvchining hayot haqidagi o‘y-xayollari va qarashlari qahramon kechmishi orqali tasvirlangan. Romanda kundalik turmushi bir xil o‘tadigan olis qishloqlarning birida tug‘ilib, katta olim bo‘lib yetishgan Omon haqida hikoya qilinadi. “Qilar ishing faqat rizq terish, uygan yemish tashish, bola-chaqa katta qilish, shuni eplay olsang olam gulistonday tuyuladi. Ya’ni, zahmat chekayotgan butun elning hayoti dasht qoraqushinikidan ortiq emas edi” [7.20]. Omon tilidan berilgan yuqoridagi e’tiroflar orqali yozuvchi inson qismati va umr mohiyatiga nazar soladi. Tadqiqotchi S.Boboyeva mazkur asar haqida shunday mulohaza bildiradi: “Genetik” romani tiliga nazar tashlar ekanmiz, birinchi navbatda, yozuvchining muallif nutqi sifatida personaj nutqidan foydalanganligiga guvoh bo‘lamiz. Ya’ni, asarni hikoya qiluvchi bosh qahramonning o‘zi ekanligi roman mohiyatini ochishda va retsiipyentni asar konsepsiyasini idrok qilishida ko‘mak beradi” [1.75]. Darhaqiqat, romanda yozuvchi ko‘plab o‘rinlarda muallif to‘g‘ridan to‘g‘ri personaj nutqidan foydalangan. “Genetik” romani ikki qismidan iborat bo‘lib, uning birinchi qismida muallif nutqi sezilmaydi. Muallif nutqining bor imkoniyatlari asar qahramoni Omonga yuklanadi. Romanning ikkinchi qismida esa muallif nutqi aniq aks etadi: “Dasht shamoli shiddat bilan uradi, kulrang yulg‘unlarni chayqatadi. Bu mahalda uning suv yuqtirmas tukli yaproqlari teskari bo‘lib qoladi, shu sababli tusi o‘zgaradi, yukli bulutlar pastlay boshlaydi, tevarak junbushga keladi. Iliq tomchilar yuzga uradi.

– Ha-a-ayt! – deb hayqiradi dasht-u dalalarning Omon degan bolasi, osmonga qarata” [7.83].

Adibning “Genetik” romaniga o‘xshash “Boqiy darbadar” asari ham zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi postmodernizm namunasi deyish mumkin. “Boqiy darbadar” romanini obyekt sifatida o‘rgangan S.Quronov asarni “Mavjudlikning mazmun-mohiyati haqidagi roman”, – deya ta’riflaydi.

Yozuvchi romanda yangi dunyoda ro‘y berayotgan texnologik yutuqlar haqida so‘z yuritib, buning natijasida insonlar qarshisida minglab muammolarning vujudga kelishi haqida mulohaza

yuritadi. Asar syujeti voqealarini bir zamon va makonda bo‘lib o‘tmaydi. Unda borar yo‘lining aniq manziliga ega bo‘lmagan ikki qahramon haqida so‘z yuritiladi. Ulardan biri Muborak kishining (bu yerda Iso payg‘ambarga ishora qilinadi) duoyibadga uchrab abadiy yashashga mahkum etikdo‘z bo‘lsa, ikkinchisi inson qo‘li bilan yaratilgan uzoq umr ko‘rvuchi klondir. Turli zamon va makonda bo‘lib o‘tgan voqealarini o‘zaro birlashtirishda yozuvchi mahorati yaqqol namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunos olim D.Quronov bu haqida shunday yozadi: “Boqiy darbadar”da an’anaviy eposga xos voqeaband syujet o‘rnida sirtdan bir-biriga bog‘lanmay turli makon va zamonda, goh reallik, gohi xayolotda kechuvchi voqealar tasvirlangan, markazida risoladagidek qahramon turmagan bo‘lsa-da, ularni bir narsa – hayotning ma’nisi-yu bashariyat taqdiri haqida o‘yga tolgan muallif shaxsi birlashtiradi, yaxlit butunlikka – romanga aylantiradi”[3.15]. Olimning fikrlaridan roman yaralishida postmodernizmning kuchli ta’siri mavjudligini anglash mumkin.

Asarda olimlar inson genidan klon yaratganligi shunday tasvirlanadi: “Toshlarni shiqirlatib, toyg‘ana-toyg‘ana o‘sha yerga ko‘tarilib, sinchiklab ko‘zdan kechirganida, haqiqatan ham yapaloq tosh ustida uzun soch tolasini topdi...

Olimlar benihoya chalkash gen o‘ramlaridagi ma’lumotlar qatiga inson uchun butunlay begona, balki olamda tengi yo‘q o‘zga hukmlar joylab qo‘yilganiga guvoh bo‘lishadi. Rivoyatlar u tolaning bir mahallar mangulik la’natiga duchor bo‘igan kishiga taalluqli ekanini tasdiqlab tursa-da, fanni ishontirib bo‘larmidi?..

Shunday bo‘lsa-da, o‘sha soch tarkibidagi genlardan tanzim etilgan yana bir barhayot jon dunyoga keldi. Yangi asrlarning yangi darbadari shu tobda bepoyon Gobi sahrosining sariq qumlari aro quyosh botadigan tarafga shitob bilan ketib borardi” [6.184-185].

Postmodernizm dastlab G‘arbda vujudga kelib keyinchalik Sharqda ham keng quloch yozdi. Ya’ni ikki mintaqaga madaniyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvni natijasida Sharqda yangicha ko‘zqarashlarni vujudga keltirdi. G‘arb postmodernistlari inson bema’ni hayot kechirish yo‘lini tanlasa, milliy adabiyotimizdagi insonda hayotdan ma’no va butunlikni qidirishga undash kuchli.

XULOSA. Azal-azaldan Sharq mamlakatlari, xususan, musulmon olamida yaratilayotgan asarlar

asosiy g‘oyasi komil insonni tarbiyalashga qaratilgani ma’lum. Isajon Sulton romanlarini o‘zbek adabiyotidagi postmodernizm namunalari sifatida e’tirof etish mumkin. Yozuvchi romanlari o‘ziga xos uslubda yaratilgan bo‘lib, ularda kitobxon o‘z umr mohiyatidan xulosalar chiqarishga undaladi. Yozuvchi uslubidagi mazkur an’ana faqatgina romanlarida emas, balki boshqa janrlarda ham kuzatiladi. Shunday ekan, zamонавиј о‘zbek nasridagi mazkur an’anani G‘arb postmodernizmi va Sharq mumtoz falsafasi sintezi mahsuli sifatida qabul qilish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Boboyeva S. “Genetik” romanining badiiy tilida poetik tafakkur ifodasi // Ilmiy axborotnoma. – Samarqand, 2021-yil 2-son. – B. 75.
2. Hamdamov U. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm. – Toshkent: Akademnashr, 2020.
3. Quronov D. O‘ylashga undovchi asar // Sharq yulduzi, 2010, 6-son. – B.15.
4. Quronov S. Mustaqillik davri o‘zbek romanlarida inson konsepsiysi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiya. –T., 2024. – Б. 96.
5. Затонский Д.В. Модернизм и постмодернизм. – Харьков: Фолио, 2000.
6. Исажон Султон. Боқий дарбадар (роман) // Қоракүш Юлдузининг сири. – Тошкент: Faafur Fulom, 2019.
7. Исажон Султон. Генетик (роман) // Қоракүш юлдузининг сири.–Тошкент: Faafur Fulom, 2019.
8. Куронов С. Ифода ва ифодавийлик. – Тошкент: Академнашр, 2013. – Б. 24.

